

ENG YANGI DAVRDA GLOBAL FUQAROLIK JAMIYATI

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi

Qudratov javohir komilovich

Telefon raqami: +998(91)9598597

E-mail: qudratovjavohir201@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada rivojlanib borayotgan davrda ko‘plab davlatlarda yuz berayotgan huquqiy, siyosiy va ijtimoiy holatlar va bunda muhim ahamiyat kasb etib borayotgan fuqarolik jamiyati, demokratiya, oshkoralik, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, globallasuv, rivojlangan davlatlar, inson huquqlari, ijtimoiy munosabatlar, demokratiya, huquqiy tizim.

“bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so‘z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta‘minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo‘lmasligini o‘zimizga yaxshi tasavvur etamiz”

O‘zbekiston respublikasining birinchi prezidenti i.a.karimov.

Xxi asr globallasuv jarayoni o‘zining yuqori darajasiga chiqdi. Bugungidek global davrda fuqarolik jamiyatini takomillashtirish, uni yanada rivojlantirish demokratiyaga asoslangan davlatlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolik munosabatlari tashkilotlarining o‘rni beqiyos bo‘lgan bizning mintaqada bu borada keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda huquq va demokratiyaga asoslangan davlatlarda fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar yuqori darajada rivojlangan. Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning ijtimoiy,

sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda¹

Demokratik davlatlarda fuqarolar o'zlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan imkoniyatlarini to'liq namoyon qila oladilar va bu davlat ishlarida o'z aksini topadi. Davlatda chiqadigan ko'plab qonun va qarorlar ichki tartib intizomni saqlash maqsadida chiqariladi. Shuningdek, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni tartibga solish, fuqarolar bilan yaqindan muloqot qilish, ular bilan birgalikda ishlash, joriy qilish kabi ishlar o'z samarasini bermay qolmaydi. Shuning uchun demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan davlatlar yaxshi rivojlanish ko'rsatkichini qayd etmoqda. Demokratik davlatlarda tashkil etilgan jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va ularning a'zolari jamiyatdagi muammo va kamchiliklarga yechim topishda va oqilona yo'llar bilan bartaraf etish choralarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishadi. Davlat esa jiddiy masalalarda va tashqi aloqalarni olib borishda ishtirok etadi.

Yoshlar bilan ishlash, ularning savodxonligini oshirish, ta'lim sifatiga e'tibor berish, malakali kadrlarni yetishtirish, davlatning rivojlanish tezligini oshiradi chunki fuqarolik jamiyatiga asoslangan, huquqiy va dunyoviy davlatlarda asosan yoshlar bilan ishlanadi. Agarda yuqorida ko'rsatilgan islohotlar amalga oshirilmasa fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlatlar tezda inqiroz holatiga tushadi. Bu jarayon sekin-astalik bilan ko'zga tashlana boshlaydi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlatlarda fuqarolik jamiyati institutlari tashkil etiladi va ularda yosh kadrlar tayyorlanadi. Buning samarasi o'laroq, davlatda har tomonlama rivojlanish, iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy rivojlanish sur'atlari tezlasha boshlaydi. Ya'ni bunda fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlatlarni ishlash prinsipi fuqarolar asosan yoshlar bilan amalga oshiriladi va bunday davlatning muhim bir bo'lagi hisoblangan yoshlar har tomonlama yetuk va bilimdon kadrlar bo'lishi talab etiladi. Globallashuv davrida fuqarolik jamiyatining o'rnini saqlab qolish juda muhim. Eng yangi davrda zamonaviy texnika-texnologiyalarni shiddat bilan rivojlanishi albatta o'z

¹ Karimov.I.A O'zbekistondagi demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi, 2002 yil 30 avgust (25.12.2023)

ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Hozirgi kunda demokratiya bo'lmagan yokida rivojlanmagan davlatlarda asosiy e'tibor zamonaviy texnologiyalarga qaratilmoqda va bu davlatlarda fuqarolik jamiyati shakllanmasligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Fuqarolarning huquq va erkinligini ta'minlay oladigan davlat fuqarolik jamiyatining asosiy negizi desak adashmagan bo'lamiz. Globalashuv davrida fuqarolik jamiyatini shakllantira olgan va shuning asnosida faoliyat yuritayotgan davlatlarda tinchlik va farovonlik hukm suradi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ham o'z samarasini bermoqda. Bunga yaqqol misol sifatida fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil etish maqsadida davlat budjetidan katta miqdordagi pullar ajratilmoqda. Xususan, oxirgi to'rt yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining 1 270 dan ortiq loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat budjetidan 117 milliard so'm miqdordagi mablag'lar ajratildi.²

Jahonning rivojlangan davlatlari shuningdek o'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil etish borasidagi bu kabi yangiliklar odatiy holga aylanib bormoqda. Fuqarolik jamiyati hozirgi zamonamizgacha bo'lgan davrda ham ko'plab davlatlarda mavjud bo'lgan.

Qadimda kishilik jamiyatining shakllanishi uchun birinchi navbatda adolat va qonun ustuvor bo'lgan davlatlar barpo etilishi, shuningdek insonlarning shaxsiy erkinligi, erkin yashash huquqi ta'minlashi kerak bo'lgan. Fuqarolik jamiyati amalda yuzaga chiqishiga hozirgacha bo'lgan inqiloblar muhim rol o'ynaydi. Aytishimiz mumkinki, yevropa davlatlarining o'rta asrlarda shiddat bilan rivojlanishi va bu borada sharq mintaqasini ham ortda qoldirishi aynan fuqarolik jamiyati bilan bog'liq desak adashmagan bo'lamiz. Misol uchun angliyadagi burjua inqilobi, hamda fransiyadagi inqilob davrida e'lon qilingan "inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi fuqarolik jamiyatining yanada keng ko'lamda quloqch yoyishiga sabab bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati xvii-xviii asrlarda bir pog'ona yuqoriga chiqdi. Keyingi asrlarda fuqarolar va davlat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik fuqarolik jamiyati bilan yanada yangi bosqichga chiqdi. Shu o'rinda aytishimiz joizki, yevropalik mahhur mutafakkirlar russo, gegel, pepper va boshqa o'z

²Kirish tartibi: <https://lex.uz/docs/-5319756>, (26.12.2023)

hayotini siyosat, huquq sohasiga bag'ishlanganlar tomonidan yozib qoldirilgan asarlari bilan ham fuqarolik jamiyati rivojiga katta hissa qo'shishadi. Xx asrga kelib texnika inqilobining vujudga kelishi natijasida ko'plab ixtirolar qilinadi. Ayniqsa, xx asr boshlarida ishlab chiqarish, tibbiyot, elektr- energetika sohasida misli ko'rilmagan darajadagi katta inqilob sodir bo'ldi. Turli xil ishlab chiqarish zavodlarining qurilishi katta miqdordagi ish o'rnini paydo qiladi. Asosan birinchi jahon urushi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida ham katta ixtirolar bo'ladi.

Bularning katta qismi yevropa davlatlarida va amerikada yuz beradi. Sharq madaniyati shakllanish tarixi haqida so'z borsa turon zaminida yashab ijod qilgan, jahon tamadduni qurilishida katta hissa qo'shgan bobolarimizni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Aytishimiz mumkinki, alisher navoiy, al-xorazmiy, abu nasr farobiy kabi bobolarimiz o'z kitoblarida kishilik jamiyati haqida ko'plab ma'lumotlar berib o'tishgan. Jumladan kishilik jamiyatining davlatda tutgan o'rni, shuningdek davlat rivojlanishida aholi qatlamining qanchalik darajada muhimligi va agarda xalq xushfe'l va bilimdon bo'lmasa ichki ishlarda muammolarning ko'payishi, oz bo'lganini ham bartaraf etisha olmaydi. Fuqarolik jamiyati esa bu holatga juda mutanosib hisoblanadi.

O'z asarlari orqali nazariy bilimlar, shuningdek kishilik jamiyatining mohiyatini va tushunchasini yorqin tarzda ochib berishgan. Mirzo ulug'bek, amir temur, muhammad bobur kabi buyuk bobolarimiz o'z davlatlarida fuqarolik jamiyati tizmini, uning qay tarzda olib borilishini, aholi bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, siyosiy va iqtisodiy jihatdan qudratli davlatni qurish borasida ko'plab yangiliklarni shu jumladan soliqlar, boj to'lovlari jamiyatda intizomni saqlash maqsadida joriy qilingan qonunlari bilan qudratli va bir tizimda ishlaydigan davlatlarni barpo etishadi. Bu islohotlar shunchaki amalga oshgani, davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli davlatga aylanib qolgani yo'q. Fuqarolik jamiyati esa asosiy sabablardan biri bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, uni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu borada nafaqat yevropa va boshqa mintaqalarda balki o'zbekistonda ham katta islohotlar olib borilmoqda. Bu biz kabi yosh avlodni yanada quvontiradi, o'zimizga bo'lgan ishonchni ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.vafoyeva o'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, alisher navoiy nomidagi samarqand davlat universiteti, samarqand 2010.
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmoni, 04.03.2021-yildagi pf-6181-son kirish tartibi: <https://lex.uz/docs/-5319756> (26.12.2023)
3. o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori, 06.05.2023 yildagi 192-son kirish tartibi: <https://lex.uz/uz/docs/-6459675> (25.12.2023)